
# O‘zbek va jahon arxeologlari navbatdagi kashfiyotga qo‘l urishdi


Jahonning eng mashhur “Science” jurnalida “Janubiy va O‘rta Osiyo aholisining shakllanishi” (The formation of human populations in South and Central Asia) nomli maqola chop etildi. Ushbu maqolada Yevrosiyo xalqlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq so‘nggi 10000 yillik tarixiga oydinlik kiritilgan. Ushbu tadqiqotda mazkur hududda olib borilgan arxeologik izlanishlarda qo‘lga kiritilgan 524 ta qadimgi inson qoldiqlari (skeletlari) arxeo-genetik tahlil qilingan. DNK-tahlillari qilingan qadimiy skeletlar qatorida O‘zbekistonning oltita arxeologik yodgorligidan topilgan inson qoldiqlari ham joy olgan.



Tirik organizmlarda genetik kodni, ya’ni irsiy belgilarni saqlash va nasldan-naslga o‘tkazish vazifasini bajaradigan DNK (dezoksiribonuklein kislotasi) inson suyaklarida uzoq vaqt saqlanib qolishi aniqlangan bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali teran o‘tmishni yangi ma’lumotlar bilan yoritish arxeologiyaning eng zamonaviy yo‘nalishidir. Bunday tadqiqotlar keng ilmiy jamoalar tomonidan amalga oshiriladi, chunki bu izlanishlar dala qazishmasi, laboratoriya tahlili va natijalarni talqin qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Jahonning 80 dan ortiq nufuzli ilmiy markazlaridan 117 nafar tadqiqotchilarini birlashtirgan mazkur izlanishda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti arxeologlari ham qatnashgan.




So‘nggi 200 yildan beri o‘z yechimi kutayotgan Turon (O‘rta Osiyo) va Shimoliy Hindiston aholisining kelib chiqishi muammosiga ushbu izlanish oydinlik kiritdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur hudud aholisining shakllanishida Yevrosiyo dashtlari aholisi asosiy o‘rin tutgan.




Bu tadqiqotda Yevrosiyo bo‘yicha to‘plangan qadimiy DNK qoldiqlari Harvard universiteti laboratoriyasida tahlil qilinib, genetik natijalar arxeolog va tilshunos olimlar bilan hamkorlikda o‘rganilgan ilk tadqiqotdir.

Ma’lumot o‘rnida, Science (o‘zbekcha Sayens, inglizchadan ma’nosi — «Fan») Fanni rivojlantirish Amerika assotsiatsiyasining ilmiy jurnalidir (The American Association for the Advancement of Science — AAAS). Nature (“Tabiat”) jurnali bilan bir qatorda jahonning eng nufuzli jurnali sanaladi. Jurnal jiddiy taqriz qilinib, bir haftada bir marotaba chop etiladi, qog‘ozli variantiga 130000 obunachi, elektron variantiga 1 million obunachi bor. Ingliz tilida chop etiladi, markazi Vashington (Kolumbiya tumani, AQSh) va Kembrijda joylashgan (Buyuk Britaniya).

Maqolaning to'liq matni bilan quyidagi havolalar orqali tanishish mumkin:

https://science.sciencemag.org/content/365/6457/eaat7487/tab-pdf

https://source.wustl.edu/2019/09/ancient-dna-study-tracks-formation-of-populations-across-central-asia/

https://hms.harvard.edu/news/treasure-trove